

IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH


2021 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi milliy valyutada – 9 036,4 mlrd. soʻmni (AQSH dollari ekvivalentidagi hajmi – 954,7 million AQSH dollarini) hamda 2020 yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 98,2 foizni tashkil qildi.

Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi (2021 yil yanvar-sentabr)

	Jami	shu jumladan: mulkchilik shakllari boʻyicha:	
		davlat	nodavlat
Jami investitsiyalar, mlrd. soʻm	9 036,4	855,0	8 181,4
<i>shu jumladan: moliyalashtirish manbalari boʻyicha:</i>			
davlat byudjeti mablagʻlari	585,9	512,3	73,6
Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi	183,1	182,9	0,2
korxonalar va aholi mablagʻlari	3 927,6	126,3	3 801,3
chet el investitsiyalari va kreditlari	2 627,2	29,6	2 597,6
bank kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari	1 638,5	3,9	1 634,6
Tiklanish va taraqqiyot fondi	74,1	-	74,1

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy taʼminot tizimini qoʻllab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yoʻnaltirilgan.

2021 yilning yanvar-sentabr holatiga alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foizda)



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Ishlab chiqarish sanoati
- Qurilish
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash
- Turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalarqarish sanoati
- Boshqa faoliyat turi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

(mlrd. so'm)

	Yanvar-sentabr			
	2020 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2021 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Jami	9 154,4	100,0	9 036,4	100,0
shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:				
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	868,2	9,5	1 688,4	18,7
tog'-kon sanoati	413,8	4,5	726,2	8,2

	Yanvar-sentabr			
	2020 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2021 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
ishlab chiqarish sanoati	3 393,8	37,1	3 834,6	42,4
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	57,9	0,6	202,1	2,2
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	327,1	3,6	371,6	4,1
qurilish	221,4	2,4	296,3	3,3
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	431,4	4,7	674,6	7,5
tashish va saqlash	123,5	1,3	141,6	1,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,3	0,1	9,2	0,1
axborot va aloqa	43,6	0,5	25,1	0,3
moliyaviy va sug'urta faoliyati	21,4	0,2	13,2	0,1
professional, ilmiy va texnik faoliyat	69,1	0,8	153,3	1,7
ta'lim	169,5	1,9	127,4	1,4
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	97,9	1,1	142,8	1,6
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	435,1	4,7	396,9	4,3
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	19,6	0,2	37,8	0,4
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	435,0	4,8	82,9	0,9
boshqa faoliyat turlari	2 020,8	22,0	112,4	1,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 726,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 8,2 %), ishlab chiqarish sanoatida – 3 834,6 mlrd. so'm, (42,4 %) shundan oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda 385,8 mlrd. so'm (4,3 %), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishda – 223,5 mlrd. so'm (2,5 %), nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishda – 2 882,0 mlrd. so'm (31,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 202,1 mlrd. so'm (2,2 %), qurilishda – 296,3 mlrd. so'm (3,3 %), tashish va saqlashda – 141,6 mlrd. so'm (1,6 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 674,6 mlrd. so'm (7,5 %), axborot va aloqada 25,1 mlrd. so'm (0,3 %), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 153,3 mlrd. so'm (1,7 %), ta'limda – 127,4 mlrd. so'm (1,4 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 396,9 mlrd. so'mlik (4,3 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 2 627,2 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 45,6 foizni tashkil qildi.


Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi

(2021 yilning yanvar-sentabrida)

	Umumiy hajmi (mlrd. so'm)	Shu jumladan:	
		davlat kafolati ostida	to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar
Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar	2 627,2	203,8	2 423,4
shu jumladan:			
davlat	29,6	29,6	-
nodavlat	2 597,6	174,2	2 423,4

Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi 29,0 foizni tashkil qildi.

**Xorijiy investitsiya va kreditlarning
alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 42,4 foizni tashkil qilgan va 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,3 foizga ko'paygan, mos ravishda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 18,7 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investitsiyalar tarkibi



2021 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ifodalangan

	<i>Investitsiyalar hajmi mlrd. so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshi (ming so‘m)</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
Jizzax viloyati	9 036,4	98,2	6351,6	96,1
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 907,5	91,1	10 469,4	89,2
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	256,5	62,6	5 480,2	62,3
Baxmal	250,3	109,6	1 556,6	108,8
G‘allaorol	287,0	107,0	1 626,2	106,4
Sharof Rashidov	793,9	100,8	3 472,9	98,3
Do‘stlik	196,1	113,7	2 926,7	112,9
Zomin	927,3	104,9	5 503,1	102,4
Zarbdor	222,4	103,3	2 498,5	102,2
Zafarobod	1 052,1	107,0	20 670,9	104,8
Mirzacho‘l	433,4	100,1	8 193,9	98,4
Paxtakor	534,9	92,7	7 010,0	91,1
Forish	2 067,5	101,1	21 901,8	99,0
Yangiobod	107,5	104,4	3 731,7	104,1

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Uy–joy qurilishida 396,9 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 4,3 foizni tashkil qildi.

**2021 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya
hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy
va ijtimoiy soha obyektlari**

	<i>Barcha manbalar hisobidan</i>			
	<i>Foydalanishga topshirildi</i>		<i>2020 yil yanvar-sentabr nisbatan foizda</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan: qishloq joylarda</i>	<i>jami</i>	<i>shu jumladan: qishloq joylarda</i>
Uy-joy, umumiy maydoni ming kv.m	411,9	277,8	98,4	107,7
<i>undan:</i>				
<i>yakka tartibdagi uy-joylar</i>	411,9	277,8	101,4	108,7
<i>yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda</i>	-	-	-	-
Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni	2930	1490	120,2	130,0
Suv tarmoqlari, km	423,1	381,1	274,7	397,0
Gaz tarmoqlari, km	25,4	14,1	102,0	123,7

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 411,9 ming kv m bo'lgan 2,5 mingta uy yoki 2 453 ta kvartira (2020 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 98,4 %), shu jumladan qishloq joylarida 277,8 ming kv m (107,7 %) maydonga ega 1,5 mingta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 423,1 km suv tarmoqlari (381,1 km qishloq joylarda) va 25,4 km gaz tarmoqlari (14,1 km qishloq joylarda) ishga tushirilib, mos ravishda 2020 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 274,7 va 102,0 foizni, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich suv tarmoqlari 397,0 foizni, gaz tarmoqlari 123,7 foizni tashkil qildi.

Suv tarmoqlari qurilishiga 184,3 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 1,1 mlrd. so'm (0,6 %) Suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 183,2 mlrd. so'm (umumiy hajmning 99,4 %) o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,4 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,4 mlrd. so'm (umumiy hajmning 100,0 %) o'zlashtirildi.

Qurilish faoliyati

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 2 114,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi.


Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari tarkibi,

mlrd. soʻmda

	yanvar-sentabr	
	2020 yil	2021 yil
Qurilish ishlari hajmi	2 068,7	2 114,5
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	52,1	48,0
nodavlat	2 016,6	2 066,5

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2 066,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 97,7 foizini tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish tashkilotlarining oʻz kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)




Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi

Qurilish ishlari umumiy hajmining 82,6 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 11,4 foizi fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,0 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan umumiy hajmdan 82,3 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida Jizzax viloyati bo‘yicha jami qurilish ishlari hajmi 2 114,5 mlrd. so‘m nodavlat sektorining ulushi 105,6 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 82,3 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarini texnik qayta qurollantirishga 17,7 foizi esa, kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.

**2021 yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat turlari
bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘mda**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 82,6 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatgichga nisbatan 1,2 foiz punktga ko‘paydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 11,4 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 foiz punktga ko‘paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 6,0 foizi to‘g‘ri kelib, o‘tgan yildagi ko‘rsatgichga nisbatan 0,5 foiz punktga ko‘paydi.

2021 yil yanvar-sentabr oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining korrxonalar toifasi bo'yicha ulushi
(jamiga nisbatan % da)



■ Norasmiy sektor ■ Kichik korrxona va mikrofirmalar ■ Yirik korrxonalar

Yirik pudrat korrxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi – 5,3 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korrxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining – 71,5 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa, – 23,2 foizga qurilish ishlari bajarildi.

Viloyatda kichik korrxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumaniga to'g'ri keldi – 83,7 foiz. Mazkur hududda norasmiy sektorning ulushi – 16,3 foizni tashkil etdi.